



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



---

## THE EDUCATIONAL VALUE OF IMAM MOTURIDI'S TEACHINGS FOR THE YOUNG GENERATION

Muxammadsodiq Lapasov<sup>1</sup>

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

---

### KEYWORDS

Hanafi madhhab,  
jurisprudence, kalam, faqih,  
muhamdis, hadith, prophet,  
sahoba, aqeedah, civilization

### ABSTRACT

Moturidi was considered the most mature scholar in the field of Islamic sciences of his time, recognized by the scholars of the Muslim world, and is still mentioned with respect in various religious works.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7636927

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Student of Islamic studies, International Islamic Academy of Uzbekistan

## IMOM MOTURIDIY TA'LIMOTINING YOSH AVLOD UCHUN TARBIYAVIY AHAMIYATI

### KALIT SO'ZLAR:

hanafiy mazhabi, fiqh,  
kalom, faqih, muhamdis,  
hadis, payg'ambar, sahoba,  
aqida, sivilizatsiya

### ANNOTATSIYA

Moturidiy o'z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli dininy asarlarda ehtirom bilan tilgan olinadi.

O'zbekiston azaldan jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan allomalarni yetishtirib bergan ilm-fan va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu zamindan chiqqan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yozilgan ilmiy asarlar, yaratilgan ixtiro va kashfiyotlar zamonaviy fan sohalarining yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Allomalarimiz asarlarining Sharq va G'arbning yetakchi ta'lim dargohlarida darslik sifatida o'qitilishi ularning yuksak ilmiy salohiyati xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Movarounnahr hududida IX-XII va XIV-XV asrlarda sodir bo'lgan ikki Sharq uyg'onish davri–renessansning yuzaga kelishida mintaqada dunyoviy va diniy ilmlarning yuksak taraqqiy etgani muhim omil bo'lganini ko'rish mumkin. Yuqorida zikr etilgan ikkala tarixiy davrda ilm-fan, xususan, ilm ahli mahalliy hukmdorlarning doimiy e'tibori va g'amxo'rliqi ostida bo'lgan. Natijada Buxoro, Samarqand, Urganch, Shosh, Kesh, Nasaf kabi shaharlar butun dunyodan tolibi ilmlar kelib, tahsil oladigan ilmiy markazlarga aylangan.

Bugungi dunyo ilmiy jamoatchiligi jahon ilm-fan va islom sivilizatsiyasi rivojiga o'z hissasini qo'shgan movarounnahrlik olimlarning ulkan xizmatlarini e'tirof etmoqda. Bu borada bag'rikenglik tamoyillarini o'zida aks ettirgan moturidiylik ta'limot asoschisi Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilotu ahli-s-sunna", "Kitobu-t-tavhid" asarlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, kalom ilmida mutakallimlar mavqeini belgilashda ularning ijtimoiy-siyosiy masalalardagi qarashlari muhim o'rin tutgan. Hakimlar davlat bilan hamkorlikni rad etmay, uning vakillari bilan birga faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Abulqosim Hakim Samarqandiyning "Kitob as-savod al-a'zam" asari somoniylar taklifi asosida yozilgan va bu kitobdan o'sha davrda Movarounnahrda asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, hanafiy mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar qilgan.

Kalom ilmi o'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlar va dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga e'tiqod etish haqidagi bilimlarni ifodalagan. Biron-bir dinga mansub

shaxs uchun majburiy hisoblangan, har qanday sharoitda muhokama qilmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar majmuiga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida u maxsus bilimlar tizimi sifatida vujudga keldi. Kalom – keng ma'noda o'rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzulardan, jumladan, nasroniylik va yahudiylikda ham erkin fikr yuritishga nisbatan qo'llangan, tor ma'noda esa aqidaparastlik, ya'ni dinda obro'-e'tiborli hisoblangan shaxslar – payg'ambar, sahobalarga taqlid yo'li bilan emas, balki Qur'on va sunniy ta'limotni aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan. Hadis ilmi payg'ambarimiz tomonidan rivoyat qilingan gap va ishlarni, fiqh ilmi shariat qonunchiligini, kalom ilmi esa islom dinida e'tiqod qanday bo'lishini o'rgatadi.

Moturidiya aqidasi Qur'on, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqin ekani bilan boshqa ta'limotlardan ajralib turadi. Abu Mansur Moturidiy o'z ta'limoti bilan bog'liq aksariyat fikrlarini "Kitob tavhid" asarida bayon etgan. Xususan, o'zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so'zlarni aytadi: "Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar, ibrat va tafakkur esa ilm manbalaridan biridir".

Bu ta'limot mu'taziliylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki naqldan ham qo'shib foydalanishni zarur deb biladi. Aqida borasida qo'shgan yana bir hissasi shuki, o'sha davrlarda juda ko'plab firqalar e'tiqod borasida o'z fikrlari bilan musulmon ahlini turli yo'llarga boshlagan. Moturidiy shunga chek qo'yadi va bu o'lkada yagona aqida tizimini ya'ni hanafiya mazhab asosida o'rnatadi. U barcha aqidalar orasidagi bahsli mavzularni har bir firqaga dalillar asosida isbotlab beradi. Natijada turli xildagi mayda oqimlar ko'payishining oldi olinadi.

Abu Mansur Moturidiy umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar olib borgan. U islom dinining hanafiy mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qo'shdi.

Imom Moturidiy olimlar tomonidan buyuk mutakallim, qomusiy alloma va ulug' mutafakkir sifatida e'tirof etiladi. U asos solgan moturidiylik ta'limoti paydo bo'lgan davridan hozirgi kunga qadar muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ma'lumki, islom dinida adashgan toifalar, buzg'unchi oqimlar bugun paydo bo'lib qolmagan. Ular kelib chiqishining tarixiy-g'oyaviy ildizi ilk islom davriga borib taqaladi. O'z davrida islom ulamolari tomonidan bu kabi buzg'unchi aqidalarga ilmiy asoslantirilgan raddiyalar berilgan, ularga qarshi kurashning ma'rifiy asoslari shakllantirilgan. Imom Moturidiy ham mana shunday olimlardan biri sifatida "Musahhah e'tiqod ahli sunna" – "Ahli sunna e'tiqodining to'g'rilovchisi" kabi sharafli nomga sazovor bo'lgan. Bu bejizga emas albatta. Zero, ushbu ta'limot vakillari IX asrdan buyon ixtilofli aqidaviy masalalarga javob berish, mo'tadil ta'limotni keng tarqatish yuzasidan ulkan ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Buyuk mutafakkir bobomizning asarlarida ilgari surilgan dinlararo sabr-toqat, o'zaro hurmat va hamkorlik ruhidagi aloqalarni shakllantirish, mustahkamlash ob'ektiv zaruriyat

deb baholandi. Bunday chuqur ilmiy va nazariy mulohazalarga asoslangan qoidalar va mezonlar ma'rifiy islomni tushunish va o'rganishning muhim shartidir.

Dunyoda diniy-e'tiqodiy ixtiloflar murakkablashib, yakdil e'tiqod sifatida shakllangan ahli sunna va-l-jamoa ta'limotiga yot mutaassib oqimlarning faoliyati kuchayib borgan. Bunday o'ziga xos mafkuraviy kurash jarayonida sof aqida va kalom ilmlari xulosalariga tayanish hamda globallashuv sharoitida buzg'unchi g'oyalar ta'sirida murakkablashib, asl mazmun-mohiyatini yo'qotayotgan tushunchalarini mutafakkir ilm sohiblari asarlari orqali yoritilib borilishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Hozirgi kunda musulmon olamida muhim o'ringa ega moturidiylik ta'limotini chuqur tahliliy o'rganish, ilmiy-ommabop risolalar nashr qilish, sohaga doir zamonaviy muammolarni qamrab olgan tadqiqotlarni yaratish, bugungi kunning birlamchi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugun qadar ham ana shu ezgu ishlar davom etmoqda. Shu munosabat bilan yurtimizda "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" tashkil etildi. Unda aqida va kalom ilmi rivojiga o'zining beqiyos hissa qo'shgan Imom Moturidiy va uning izdoshlari bo'lgan allomalarning ulkan ilmiy, diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va ular kelajak avlodga yetgazish borasida qizg'in ishlar markaz tomonidan amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, islom dinining ilm-ma'rifiy va ma'naviy pok din ekanligini yanada targ'ib qilgan holda taraqqiyot va bunyodkorlikka chaqiruvchi g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga yetkazish asosiy o'rin kasb etadi.

Abu Mansur Moturidiy yashagan davrda buzg'unchi oqim va firqalar kabi o'ndan ziyod oqimlar yoshlarga va diniy savodi yetarli bo'lmagan kishilarga takfir, toqatsizlik, murosasizlik g'oyalarni singdirib, jamiyatni yomon illatlar bilan buzishga sababchi bo'layotgan edilar. Abu Mansur Moturidiy tomonidan takomillashtirilgan hanafiylik ta'limoti o'zining ba'grikengligi, yot g'oyalarni xalq orasidan siqib chiqarishga zamin yaratib, moturidiylik ta'limoti sifatida olimlar e'tirofiga sazovar bo'ldi.

Movarounnahrlik mutakallimlarning aqoid ilmiga oid asarlarini ilmiy asosda tahlil va tadqiq etish orqali jamoatchilikka sof islom ta'limotini ochib berish talab qilinmoqda. Bunda asosida yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida moturidiylik ta'limotidagi asosiy matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, hamda ularning elektron dasturlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Moturidiylik ta'limotiga oid aqidaviy matnlar, ularning sharhlari va zamonaviy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan elektron kutubxona yaratish destruktiv oqim g'oyalari qarshi raddiyalar berishda mafkuraviy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Abu Mansur Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham xorijdagi kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Islom olamida mashhur bo'lgan "Kitob ut-tavhid" asari 1970 yilda Fathulloh Xulayf tomonidan Bayrutda, keyinchalik esa Turkiyada bir necha bor nashr etiladi. So'nggisi Bekir Tuplu o'g'li va Muhammad Aruchi kabi olimlar tomonidan 2003 yil Anqarada chop etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ul zot asos solgan diniy ta'limot – moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida katta shuhrat topishiga sabab shuki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinining mohiyatini to'g'rilik, ezgulik, insoniylik deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarashlari va intilishlari bilan hamohang edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Sunnii aqidalar" – Toshkent. "Hilol – Nashr". 2018.
2. Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf "Aqoid ilmi" – Toshkent. "Hilol-Nashr".
3. Sh. Ziyodov – Al- Moturidiy hayoti va merosi. Toshkent – A. Qodiriy. 2000.